

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI (QADIMGI XORAZM MISOLIDA)

Qarshiyev Fazliddin Olim o‘g‘li

*Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti,
Tarix va uning o‘qitish metodikasi yo‘nalishi talabasi.*

Tojiyev Diyorbek Nuriddin o‘g‘li

*Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti,
Tarix va uning o‘qitish metodikasi yo‘nalishi talabasi.*

Annotatsiya : *Ushbu maqolada qadimgi Xorazm toponimining kelib chiqishi, qadimgi Xorazm hududidagi etnik va assimilyatsion jarayonlar, qadimgi Xorazmda ilk davlatchilik vujudga kelishiga turtki bo‘lgan omillar, qadimgi Xorazm yozuvi, qadimgi Xorazm o‘troq qabilalarning yaratgan madaniyatlari haqida ma‘lumotlar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Xvairazim, shohpaxta, qadimgi Xorazm iqlimi, aholining kundalik mashg‘ulotlari, Oybo‘yirqala, Oqchadaryo, Amirobod , Joytun, Kaltaminor.*

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning “davlatchilik bugungi kunda o‘ta muhim siyosiy masala bo‘lib turibdi” nega deganda O‘zbekistonda davlatchilik bo‘lmagan deb orqaavrotdan tashviqot yuritayotgan shu fikrni ongimizga singdirmoqchi bo‘layotgan kerak bo‘lsa xalqaro jamoatchilikni shunga ishontirmoqchi bo‘layotgan kuchlar hali bor. bunday g‘alamislar orasida qanday qilib bo‘lsa ham bizni yana sobiq SSSRga qaytarish niyatida yurganlar yo‘q deysizmi o‘zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi ushbu davolarning puch ekanligini isbotlash davlatchiligimizning ilmiy nuqtai nazardan isbotlangan tarixini yaratishdir. (I.A.Karimov: Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch.1998- yil).

Ushbu fikr aytilganiga qariyb 26 yil bo‘lgan bo‘lsada ushbu so‘zlar haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan chunki hozirga kunda dunyoda notinchlik hukm surmoqda bunday qaltis vaziyatni hisobga olgan xolda o‘tmishdan xulosa chiqarib tariximizning noyob ochilmagan qirralarini kashf etib bu boy, noyob, badiiy, madaniy axloqiy, tarixiy nuqtayi nazaridan beqiyos yodgorliklarni yoshlarimizga yetkazish ularning tarixiy bilimlarini oshirish va ayni chog‘da o‘zbek xalqi mehmondo‘st, iymoni mustahkam mehnatkash va eng asosiy tinchlikparvar xalq ekanligini butun dunyoga namoyon qilish va o‘z o‘rnida o‘zbek davlatchiligi tarixi juda uzoq davrlarga borib taqalishini ilmiy jihatdan isbotlash biz tarixchilarining asosiy vazifalaridan biridir desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xorazm toponimi ilk bora eramizdan avvalgi: VII-VI asrlarda ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra Xorazmda vujudga kelgan va jahondagi eng qadimiy dinlardan biri bo‘lgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoda qayd etilgan. Unda jumladan shunday deyiladi: “Men kim ezgulik ilohi Ahuramazda yerlarning

oliysi bo'lgan Aryanem Vaychahni yaratdim, baland tog'lar bag'rida Baxdini yaratdim, so'g'diylar yurti bo'lgan Gavani yaratdim deydi" Avestoda qayd etilgan. Aryanem Vaychah atamasini ko'pchilik olimlar hozirgi Xorazm deb bilishadi. Yana Avestoda Xvairazim atamasi ham keltirilgan bo'lib, Xvairazim so'zining ma'nosi "Quyoshli o'lka" degan ma'noni anglatadi. Bu Avestoning Yasht kitobi 6-bo'limida keltirilgan. Xorazm toponimi to'g'risida yana ba'zi bir qator arxeolog olimlarning ham fikri bor. Misol uchun Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasi rahbari S.P.Tolstov o'zining 1937-1970 Xorazmda olib borgan arxeologik qazishmalar natijasiga tayangan holda shunday deydi: xvarri yoki xurri xalqining vatani forscha xurri, xursed quyoshli yer degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari yana fors tilida Xuarazmish nomlari ham bor aynan ushbu toponim so'zining ma'nosi "Botqoqli yer" degan ma'noni anglatadi. Endi yuqoridagi fikrlarni taxlil qiladigan bo'lsak, Avestoda qayd etilgan nomga ko'ra Xvairazim quyoshli o'lka deyildi. Bu o'z o'rnida to'g'ri ham sababi shuki, qadimgi Xorazm iqlimiy jihatdan janubiy tomondan ham sharqiy tomondan ham shimoliy tomondan va qisman g'arbiy tomonidagi Kaspiyni inobatga olmaganda deyarli har tomonlama cho'l bilan o'ralgan bu uning quyoshli deb atalishiga yorqin misoldir va shuni ham unutmaslik kerakki zardushtiyalar osmon jismlari qatorida quyoshga ham sig'inishgan. Professor S.P.Tolstovning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak u ham ko'p yillik Xorazmdagi arxeologik tadqiqotlari natijasida bildirilgan fikridir va bu ham yuqoridagi fikrlarimning isbotidir. Qadimgi Xorazm hududida dastlabki etnik jarayonlar yoki ko'chmanchi ovchilarning dastlabki genografik makonlari ilk paleolit (ashel) davriga borib taqaladi, buning yorqin isboti hozirgi shimoli g'arbiy Ustyurtdagi Shoxpaxta havzasi atroflarida tegishli ravishda Shoxpaxta 1,2 makonlarida Ye.B.Bijanov tomonidan olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida yodgorliklardan bir qator moddiy ashyolar topilgan. Ma'lumot o'rnida qadimgi Xorazm hududi o'rta Amudaryo vohasidan boshlab orol dengizigacha bo'lgan hududni egallagan qabilalar ittifoqi yoki turli xil qabilalar tashkil etgan tumanlarning birlashmasidan iborat bo'lgan yuqori men Ustyurtda joylashgan yodgorlikni ham qo'shib ketdim buning sababi aynan shu hududdan kelgan aholi bu qabilalarning asosini tashkil etgan degan fikrlar ham bor ammo ba'zi olimlar bu fikrga qarshi chiqib (Y.A.Rapport.O.A.Vishnevskaya) Xorazmga aholi mashhur Xorazmlik saklarning janubi sharqiy tomonlarga yurushlari oqibatidir, shuning uchun Qadimgi Baqtriya bilan So'g'diyona madaniyati qoldiqlari Xorazm hududidan topilgan ya'ni tegishli madaniyat hududga aholi janubi sharqdan borgan va o'zlari ko'chib borgan demoqchi bu bir muncha noto'g'ri, madaniyat Xorazmga ko'chib kelmagan aksincha qadimgi Xorazm hududida qadimdan shakillangan, Xorazmdan hozirgi Sirdaryo bo'ylariga tarqalgan qolaversa .Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm tarixan bir biri bilan bog'liq va bu madaniyatlar bir-biri bilan doimiy integratsion aloqalarni olib borgan. Bu fikrga qo'shilmaydiganlar uchun tipik isbot bu bronza davriga oid bo'lgan qadimiy Jarqo'ton yodgorligidan topilgan sopol buyumlarning Hindistondagi Xarappa yodgorliklarini tadqiq qilish vaqtida topilganligidir, bu narsa qadimgi davrlardan o'q O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasida

aloqalar bo'lganligini anglatadi. endi savol tug'iladi, nima uchun minglab kilometr uzoqlikdagi Hindiston bilan bo'lgan aloqalar biz bilan bir tarixiy davrga oid bo'lgan Baqtriya va Sug'diyona bilan bo'lmisligi kerak.

Qadimgi Xorazm hududida juda ko'plab o'troq sug'orma dehqonchilik o'choqlari topilgan ulardan biri Joytun madaniyati hisoblanadi. Bu madaniyatga oid yodgorliklar hozirgi Turkmaniston hududlarida joylashgan bo'lib bu yodgorlik er. avv. 6- ming yillik oxiri va 5- ming yillik boshlariga oid bo'lib uni tadqiq etish ishlari bilan B.A. Kuftin V.M. Masson D. Durdiyev O. Berdiyevlar shug'ullanishgan ushbu madaniyatga Tog'oloqtepa, Chag'illitepa, Munchoqlitepa, Choptepa, Joytun kabi yodgorliklar kiradi. Unda qurilish ishlari guvala va somon bilan olib borilgan uylar ma'muriy jihatdan omborxonalar, saroy va o'ralar ham bo'lgan Joytunda kulolchilik buyumlari qo'lda ishlangan va geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Bezakli idishlar ko'proq qizil rang bilan bo'yalgan. Bu yerda hayvon va inson gavdasi tasvirlangan terrakota haykalchalari ham topilgan. Ushbu haykalchalar urug'ning sig'inadigan buyumi bo'lishi mumkin degan taxminlar ham bor. Keyingi yodgorlik bu Kaltaminor madaniyati hisoblanadi. Yodgorlik 20-asrning 30-40- yillarida Amudaryoning Oqchadaryo o'zanidan topilgan, bu yodgorlikni arxeolog S.P. Tolstov topgan. madaniyat Kaltaminor kanali etaklaridan topilganligi uchun shu nom bilan atalgan. Bu madaniyatga oid bo'lgan yodgorliklar O'rta Osiyoning g'arbiy va shimoli-g'arbiy tomonidagi yerlarda keng tarqalgan va bir uchi Ural daryosigacha cho'ziladi. Ushbu madaniyatga Jonbos 4, Qavat 7, Tolstov kabi yodgorliklar Xorazm hududida ilk yozuvning paydo bo'lishini eramizdan avvalgi VI-asr bilan bog'lashadi ya'ni Eron ahamoniylarining O'rta Osiyoga bosqini davrida eronliklar olib kelgan va bu yozuv, hind-yevropa tillar oilasining eroniy guruhiga mansub bo'lmish oromiy yozuvi deyishadi va bu yozuv namunalari miloddan oldingi V-IV-asrlarga oid bo'lgan Oybo'yirqaladan topilgandir. Bu yozuv xum sirtiga bitilgan. Ushbu yozuv Markaziy Osiyodagi eng qadimiy yozuv degan xulosaga kelingan. Bundan tashqari ibodatxonali Qo'yqirilgan qal'adan ham ayrim mahalliy yozuv namunalari topilgan. Ammo bugungi kundagi Jarqo'tonda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida 100 ga yaqin belgili yozuvlar yohud harflar topildi bu harflarni topgan va sinchiklab o'rgangan olim tarix fanlari doktori professor Shopo'lat Bozorovich Shaydullayev bu bronza davridagi ilk yozuv namunalari deb atadi bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston hududida yozuv bronza davrida shakillangan, bu narsa Oks sivilizatsiyasiga tayangan holda Xorazmni Baqtriya bilan bog'laydi va umumiy nomda Oks sivilizatsiyasi degan g'oya shakillanishiga turtki beradi. Lekin, Oybo'yirqaladan topilgan yozuv qiymati bo'yicha Jarqo'tondagi yozuvdan ustunroq. Amirobod madaniyati mil. avv. 10-8- ming yilliklarga tegishli bo'lib 1940-yilda Amudaryoning quyi havzasidagi Amirobod kanali yoqasidan topilgan Bu madaniyatning Xorazm tarixida tutgan o'rnini sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning o'sha davrga xos darajada yuksak rivojlanishi bilan ajralib turadi. Suvyorgan va Dovdon yodgorliklari aynan suv toshqinlari bo'ladigan joylarda joylashgan bo'lsa ham ammo bu vaqtda aholi sug'orma dehqonchilik bilan

shug'ullangan Qadimgi bosh kanallarning deyarli hamma asosiy o'zanlari mana shu uzun uylarga yonma yon joylashgan bosh kanallarning saqlanib qolgan qirg'og'i ko'tarilmalari Amirobod madaniyati yodgorliklarining tipik namunalari tez tez topilib turadi sug'orma dehqonchilikning ehtiyoji shu darajaga yetdiki odamlar tabiiy oqar suv miqdori kamaygan sari jamoa a'zolari o'z dalalariga suvni ariqlar orqali olib kelishni boshlashdi va Amirobod madaniyatiga tegishli hududlarda juda ko'p ariqlar ochildi va bu ariqlar hozirgi kungacha saqlanib qolgan aynan kanallar Misrdagi o'rta podsholik davridagi kabi qonuniy ravishda orta bordi natijada kanallar borgan sari yuqoriroqqa intildi va ular bir biriga ulashib barcha ariqlarning bosh manbai bitta Amudaryo bo'ldi bu xususda D.Byukkinchin Amudaryo deltasida ibtidoiy sug'orma dehqonchilik madaniyati bo'lmagan Amudaryo deltasi madaniyati so'ngi davrdagina juda taraqqiy etgan shuning uchun u Nil va Frot daryolari kabi tarixiy daryo bo'la olmaydi degan fikrini asossiz deyishimizga bu yodgorliklar isbot bo'la oladi deydi arxeolog Y.G'ulomov.

Umuman olganda xulosa aytadigan bo'lsak Xorazm madaniyati undagi har bir yodgorlik Xorazm hududida ilk davlatchilik rivojlanganligiga guvohlik beradi o'z o'rnida bizda Amudaryo va Sirdaryoda havzalarida bor bo'lganidek. Jahondagi barcha davlatlar sivilizatsiyasi aynan daryolar bo'yida vujudga kelgan hatto bu jarayonni Nil havzasida shakllangan sivilizatsiya ham misol bo'la oladi. Shuningdek bu jarayon o'rta asrlarda ham davom etgani ko'rishimiz mumkin. Buning yorqin misoli sifatida XIII-asrda mo'g'ul qabilalarining birlashuvi yohud Temuchinga Chingizxon laqabi berilishi ham daryo bo'yida sodir bo'ldi. Daryo bor yerda dehqonchilik bo'ladi, sug'orma dehqonchilik bo'lsa hosil ko'payadi va ortiqcha mahsulot paydo bo'ladi inson uni sotadi yoki ehtiyoji bor narsaga ayirboshlaydi. Aynan bu narsa odamlarnig boyishiga sabab bo'ladi. Qabilada zodagonlar paydo bo'lishi va ularning urug' hayotida katta ro'l o'ynashi bilan belgilanadi. shunday qilib Xorazm hududida davlatchilik shakllanishi uchun barcha sharoit yaratildi va bu yerda davlatchilikning ilk belgilari shakillandi. Yuqoridagi qayd etilgan fikrlardan o'rinib turibdiki, o'zbek davlatchiligida qadimgi Xorazmning o'rni beqiyos hisoblanadi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.N.Egabberdiyeva arxeologiya
- 2.A.Sagdullayev.O'zbekiston tarixi
- 3.Y.g'ulomov xorazm sug'orilishi tarixi.
- 4.Sh.shaydullayev. O'zbekiston hududida davlatchilik shakllanishi qadimgi
- 5.Baqtriya misolida.
- 6.A.Anorboyev . H. G'ulomov va boshqalar. O'zbekiston tarixi.
- 7.M.Matniyozov. Xorazm tarixi (история хоразима).